



XALQARO INVESTITSIYA SHARTNOMALARDA ADOLATLI VA TENG HUQUQLI MUOMALANI SHAKILLANTIRISH XILMA-XILLIGI

Abdurazzoqov Bobur Shavkat o`g`li

Toshkent davlat yuridik universiteti

Xususiy huquq 3-bosqich talabasi

babdurazzoqov987@gmail.com

Annotatsiya: Xalqaro investitsiya shartnomasi davlatlar o`rtasidagi shartnoma turi bo`lib, u odatda bunday investitsiyalarni himoya qilish, rag`batlantirish va erkinlashtirish maqsadida transchegaraviy investitsiyalar bilan bog`liq masalalarni hal qiladi. Shuningdek, Xalqaro investitsiya shartnomalarida xorijiy investorlariga adolatli muomala standartlarini yaratish, mahalliy investorlar bilan bir qatorda tenglik muhitini yaratish, mahalliy va xorijiy investorlar o`rtasida salbiy diskriminatsiyani oldina olish, teng huquqli raqobat muhitini yaratish, xorijiy investorlarning huquqlarini kafolatlash kabi muhim shartlar shartnomalarda adolatli va teng huquqli muomilani shakillantirishga xizmat qiladi.

Kalit so`zlar: Xalqaro investitsiya, mahalliy investor, xorijiy investor, diskriminatsiya, teng huquqlilik, adolatli va teng huquqli muomala rejimi(FET).

Hozirgi kunda xalqaro huquq sohasi eng rivojlanayotgan huquq sohalaridan biri hisoblanadi. Xalqaro investitsiya huquqi ham shular jumlasiga kiradi. Xalqaro investitsiya huquqi o`zi nima? Mahalliy investorlar kim? Xorijiy investorlar kim? Diskriminatsiya nima? Tenglik huquqi nima? Adolatli va teng huquqli muomala rejimi(FET) nima ekanligi? kabi savollar va ”Adolatli va teng huquqli muomala”standartlari tegishli manbalar, mazmun-mohiyatini belgilovchi qoidalar va keyslar orqali mazkur maqola muhokama qilinadi.



Muhokama va natijalar

Xalqaro investitsiya huquqi xalqaro huquqning eng qadimgi sohalaridan biridir. Ammo u XX asrning ikkinchi yarmigacha nisbatan rivojlanmagan bo'lib, globallashuv bilan birgalikda o'sib bordi, ya'ni iqtisodiy integratsiya hamda butun dunyo bo'ylab odamlar va kapitalning harakatchanligi ushbu huquq sohasining jadal rivojlanishiga turtki berdi. Xalqaro investitsiya huquqi chet il investitsiyalarni qabul qiluvchi davlatga kirib kelishini ta'minlaydigan hamda investitsiyalarni turli xarajatlardan (ayniqsa, siyosiy xavfdan) himoya qilishga qaratilgan xalqaro qoidalar yig'indisi sanaladi.¹ Xalqaro investitsiya huquqi, investitsiya faoliyati ishtirokchilari uchun huquqiy asos bo'lib, tashqi investitsiya munosabatlarini tartibga soladi, ularning yangi sharoitlarga muvofiq ravishda o'zgarishiga ko'maklashadi, davlat tomonidan va xususiy huquqiy tartibga solish usullari bilan huquqiy himoyani ta'minlash shakllari va usullarini takomillashtirishga yordam beradi. Xalqaro investitsiya huquqi, xalqaro huquq nuqtai nazaridan, jamoat xarakteriga ega, uning normalari davlatlar irodasining ixtiyoriy kelishuvi asosida tuzilgan va u bilan tartibga solinadigan munosabatlar vakolati hisoblanadi. Demak, xalqaro investitsiya huquqi, investitsiya faoliyati ishtirokchilari uchun huquqiy asos bo'lib, tashqi investitsiya munosabatlarini tartibga soladi, ularning yangi sharoitlarga muvofiq ravishda o'zgarishiga ko'maklashadi, davlat tomonidan va xususiy huquqiy tartibga solish usullari bilan huquqiy himoyani ta'minlash shakllari va usullarini takomillashtirishga yordam beradi. Xalqaro investitsiya huquqining manbalarini keltirib o'tkanimiz maqolamizning mazmuniga aniqlik kiritadi. Ushbu huquqning asosiy manbalari sirasiga quyidagi ikki hujjat misol bo'ladi. Birinchisi, Davlat va yuridik shaxslar hamda boshqa davlatlarning fuqarolari o'rtasida investitsiya nizolarini hal qilish to'g'risidagi Vashington konventsiyasi (1965 yil). Ikkinchisi, Xalqaro investitsiyalar kafolati agentligini tashkil etish to'g'risida Seul konventsiyasi (1985 yil). Shuningdek, 1994 yildagi Evropa Energetika Xartiyasida bayon etilgan ilg'or me'yorlar butun Xalqaro investitsiya huquqi tizimi uchun muhim manba hisoblanadi. xalqaro investitsiya huquqining subyektlaridan biri investorlar hisoblanadi va investorlar qonun hujjatlariga muvofiq buyurtmachi, kreditor, sotib



oluvchi bo'lishi mumkin. Chet ellik hamda mahalliy investorlar tomonidan amalga oshiriladigan investitsiyalar va investitsiya faoliyati sohasidagi munosabatlarni tartibga solish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi “INVESTITSİYALAR VA INVESTITSIYA FAOLIYATI” to'g'risida 25.12.2019 yilda O'RQ-598-son qonun qabul qilgan. Ushbu qonunda mahalliy hamda chet ellik investorlar ya'ni mahalliy investorlar — investitsiya faoliyatini amalga oshiruvchi O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, O'zbekiston Respublikasi rezidenti maqomiga ega bo'lgan chet ellik fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, shu jumladan yakka tartibdagi tadbirkorlar, shuningdek O'zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari. Chet ellik investorlar esa, chet davlatlar, chet davlatlarning ma'muriy yoki hududiy organlari, davlatlar o'rtasidagi bitimlarga yoki boshqa shartnomalarga muvofiq tuzilgan yoki xalqaro ommaviy huquq subyekti bo'lgan xalqaro tashkilotlar, chet davlatlarning qonunchilik hujjatlariga muvofiq tashkil etilgan va faoliyat ko'rsatadigan yuridik shaxslar, har qanday boshqa shirkatlar, tashkilotlar yoki uyushmalar, chet davlat fuqarolari va O'zbekiston Respublikasidan tashqarida doimiy yashaydigan fuqaroligi bo'lmagan shaxslar hisoblanadi.² Shu o'rinda, xalqaro huquqda diskriminatsiya nima ekanligi va uning xavfini aytib o'tsak. Diskriminatsiy -- xalqaro hamjamiyatning ish stolida doimiy tarzda hal qilinishi muhim bo'lgan “bosh og'riqlar” qatorida turuvchi insoniyat muammosi. Diskriminatsiya so'zini lug'aviy tahlilidan shuni tushunish mumkinki, uch subyekt – davlat, yuridik va jismoniy shaxslarning huquqlarini xuddi shu uch subyekt tomonidan har qanday tarzda cheklanishi. Diskriminatsiya inson huquqlari buzilishi va suiste'mol qilinishining eng keng tarqalgan turidir. Ya'ni inson huquqlari buzilishida diskriminatsiyaning bir nechta turlari asosiy o'rinda turadi. Diskriminatsiya jinsga, shaxsning jismoniy holatiga, yoshiga, diniy e'tiqodiga va etnik kelib chiqishiga nisbatan bo'lishi mumkin.³ Kartashkinning fikriga ko'ra, huquqlarning har qanday cheklanishi bu – diskriminatsiya. Lekin eng asosiy diskriminatsion holatlarning aksariyati irqiy kamsitilishda kuzatilyapti. Ba'zan esa ushbu muammolarni xatto ayrim subyektlarning tizimlariga qisman yo'g'irilganini ham kuzatamiz. Diskriminatsiyaning xavfi shundaki, u jamiyatda ijtimoiy tengsizlikni haddan tashqari



kuchaytirib yuboradi. Oddiy tushuntiradigan bo'lsak, bir xil ijtimoiy vaziyatda ikki shaxsga ikki xil munosabatda bo'lish. Bu nima degani ? Ya'ni o'sha ikki shaxsning huquqlari bir xil va qonunchilikka ko'ra teng, lekin ularning qaysidir biri o'zining irqi, tili, yoshi, jinsi kabi shaxsiy xususiyatlari sabab ma'lum huquqlaridan foydalana olmasligi bu – diskriminatsiya. Aslida Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi 1-moddasining o'zidayoq biz barcha insonlarning tengligi prinsipini ko'rishimiz mumkin. Lekin ushbu universal imperativ norma davlatlar tomonidan to'liq amalga oshirilyapti deya olmaymiz. Bundan tashqari diskriminatsiya yani investorning jinsi, irqi, dini kabi boshqa ochiq-oydin talablar bo'yicha kamsitmaslikni nazarda tutadi. To'g'ridan-to'g'ri haqoratli muomila esa noto'g'ri xatti-harakatlar bilan majburlash va taqib qilish, tahdid qilish, kuch ishlatish kabi harakatlarni o'z ichiga oladi.⁴

Teng huquqlilik - konstitutsionalizmning asosiy prinsiplaridan va demokratiyaning muhim elementlaridan biri; fuqarolarning davlat, qonun, sud oldida tengligini rasman e'tirof etishni bildiradi. Unga ko'ra, muayyan davlat fuqarolari jinsi, irqi, millati, tili, ijtimoiy kelib chiqishi, yashash joyi, dinga munosabati, e'tiqodi, jamoat birlashmalariga taalluqligi, shuningdek, boshqa holatlaridan qat'i nazar, teng huquq, erkinlik va majburiyatga ega bo'ladilar. Teng huquqlilik.ning realligi jamiyat va davlat tuzumining qanchalik demokratiyaliligini anglatadi.

Zamonaviy xalqaro investitsiya shartnomalarida "Adolatli va teng huquqli muomala" standarti asosiy element bo'lib hisoblanadi, bu standart ko'p yillar mobaynida investorlar uchun tayanch va muvaffaqiyatli bo'lib keldi. Xalqaro investitsiya huquqida "Adolatli va teng rejim" prinsipi birinchilardan bo'lib o'rin olgan. Adolatli va teng huquqlilik rejimi(FET) minimal himoya standarti hisoblanadi. ushbu rejim deyarli barcha investitsiya shartnomalarida uchraydi. Ushbu rejim investitsion nizolar uchun eng ko'p asos bo'ladigan shartnoma holati hisoblanadi hamda eng muvaffaqiyatli da'volarning asosi hamdir. FET keng tushunchaga ega standart bo'lib, uni amalda qo'llash juda qiyin. FET shartnomalarda turlicha aks ettiriladi. Bir guruh shartnomalar (FET) ni "to'liq himoya va xavfsizlik" hamda "xalqaro huquqning umumiy prinsiplari" bilan birgalikda

www.innovativepublication.uz



belgilab qo'yadi. Adolatli va teng huquqli muomala rejimi (FET) eng kamida davlatdan investorlarga nisbatan vijdonan bo'lmagan, asoslanmagan choralarni qo'llamaslikni, ularning manfaatlarini ataylab e'tiborsiz qoldirmaslikni yoki investorlarga asossiz munosabatda bo'lmaslikni talab etadi. Vijdonan munosabatda bo'lish deganda esa davlat investorga zarar yetkazish maqsadida harakat qilmasligi lozimligini anglatadi. Masalan, Bayindir va Pokiston hukumati o'rtasidagi nizoda ham katta yo'l qurilishi bo'yicha tuzilgan investitsion shartnoma tugatilib, ushbu loyihani amalga oshirish boshqa mahalliy va xorijiy kompaniyalar konsorsiumiga topshirilgani da'vogar tomonidan ushbu holat davlat ni buzib harakat qildi deb vaj qilishga asos bo'lgan. Bundan tashqari, Adolatli va teng huquqli muomala rejimi (FET) 2009 yilgi Glamis Gold ishida NAFTA shartnomasida berilgan hamda xalqaro odat huquqi normalariga bog'langan ATHRni shunday tavsifladi:

“... NAFTAning 1105-moddasida kodifikatsiya qilingan xalqaro odat huquqning minimal himoya standartini buzish, yetarlicha qo'pol va dahshatli harakatni talab qiladiki, odil sudlovni qo'pol ravishda rad etish, ochiq o'zboshimchalik, ochiq adolatsizlik, tegishli jarayonning mavjud emasligi, ochiq kamsitish, yoki asoslantirishning yaqqol mavjud emasligi – bu qabul qilingan xalqaro standartlardan pastga tushish va 1105-moddaning buzilishi hisoblanadi.⁵

FET majburiyatlarining rivojlanishining hozirgi bosqichida standartlarning buzilishini tashkil etuvchi ayrim turlarini ajratib ko'rsatishimiz mumkin:

- a)** investorlarning qonuniy umidlarini yo'qotish;
- b)** qaror qabul qilishda o'z boshimchalik ko'rsatish;
- c)** diskriminatsiya;
- d)** to'g'ridan-to'g'rin haqoratli muomala bunday standartlarga javob bermasligi yoki bunday standartlarning buzilishi xalqaro odat normasining buzilishi deb taqlin qilinadi va da'vogarning talabiga ko'ra ikkinchi tomon majburiyati bajarmaganlik uchun javobgarlikni talab qilish huquqi borligini belgilab qo'yadi.



Rivojlanayotgan davlatlarda adolatli va teng huquqli muhitning shakillantirilganligi investorlarni ko‘proq jalb qilinishiga sabab bo‘ladi, boshqa tomondan esa bunday standartlarning buzilishi esa javobgarlikka sabab bo‘lishini ko‘rib o‘tdik. Jahon bankining ma‘lumotlariga ko‘ra, 2016-yilda dunyo bo‘ylab 2 trillion dollordan ortiq xorijiy mablag‘lar investitsiya sifatida ma‘lum bir davlatlarga kiritilgan va bulardan eng ko‘p investitsiya kiritilgan davlatlarning aynan qaysi jihatlari ustivorligi xususida so‘rov natijalariga ko‘ra xorijiy investitsiya kapitalini qayerga yo‘naltirishdan ko‘ra o‘sha davlatdagi adolatli va teng huquqli muomala muhiti yaratilganligi, investorlar huquqlarining kafolatlanganligi ancha ustun turishi aniqlangan. Eng ko‘p investitsiya kiritiladigan davlatlardan biri bu Singapur hisoblanadi, bu davlat to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalarni rag‘batlantirish siyosati hech qanday valuta nazoratisiz yoki har qanday xorijiy valyutada rasmiyatchiliklarsiz amalga oshirilishi bilan birgalikda siyosiy barqarorlik, adolatli va teng huquqli muhitning yaratilishi bu davlat iqtisodiyotini misilsiz ko‘rsatkichlarga ko‘tardi.⁶

Xulosa: Yuqorida Xalqaro investitsiya xalqaro huquq sohasining rivojlanayotgan sohasi ekanligi, mahalliy investor va xorijiy investor kim ekanligini milliy qonunchiligimizda yaqqol tasniflanganligini, diskriminatsiya(huquqlarining har qanday cheklanishi), teng huquqlilik rejimi haqida so‘z yuritdek va adolatli va teng huquqli muomala muhiti yaratish har bir investorlarni jalb qilish niyatida bo‘lgan davlatlar uchun muhim ekanligini tahlil qilidik. shartnomalarda adolatli va teng huquqli muomilani shakillantirish uchun: qarorlar qabul qilishda ochiqdan ochiq o‘zboshimchalikni yoki tarfakashlik asosida ko‘riladigan choralarni taqiqlash, adolatni inkor etish va e‘tiborsizlikni taqiqlash, jinsi, irqi, yoki diniy e‘tiqodi kabi ochiq-oydin noqonuniy asoslar bo‘yicha kamsitishlarni taqiqlash, investorlarga nisbatan suiiste‘mol munosabatini taqiqlash, shu jumladan majburlash yoki ta‘qib qilish, investitsiyalarning rag‘batlantirish choralari natijasida kelib chiqadigan investorlarning qonuniy umidlarini himoya qilish kabi standartlarga rioyati qilishni kuchaytirish kerak.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 25.12.2019 yildagi O‘RQ-598-son
2. Rodrigo Polanko, INVESTOR VA DAVLAT O‘RTASIDA NIZOLARNI HAL QILISH ASOSLARI, 2021
3. Principles of International Investment Law, R. Dolzer and Ch. Schreuer, 1st ed. – 2008. – 181pю
4. Andrea Menaker, “Standards of Treatment: National Treatment, Most Favoured Nation Treatment & Minimum Standard of Treatment”pp.107-109.
5. <https://teletype.in/@arslon.aralov.tsul/7GQO9wxiZeb>

¹ Rodrigo Polanko, INVESTOR VA DAVLAT O‘RTASIDA NIZOLARNI HAL QILISH ASOSLARI, 2021

² O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 25.12.2019 yildagi O‘RQ-598-son

³ <https://teletype.in/@arslon.aralov.tsul/7GQO9wxiZeb>

⁴ Principles of International Investment Law, R. Dolzer and Ch. Schreuer, 1st ed. – 2008. – 181pю

⁵ Rodrigo Polanko, INVESTOR VA DAVLAT O‘RTASIDA NIZOLARNI HAL QILISH ASOSLARI, 2021

⁶ Andrea Menaker, “Standards of Treatment: National Treatment, Most Favoured Nation Treatment & Minimum Standard of Treatment”pp.107-109.